

KLASSIK VA ZAMONAVIY ELITOLOGIYA  
CHEGARALARI VA KESISHISH NUQTALARI

*Mardanov Sardorbek Zafar o'g'li*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi*

*O'zbekiston milliy universiteti*

*Ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Siyosatshunoslik yo'nalishi*

*"Siyosat-22/A1" guruhi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada siyosiy elitologiyaning zamonaviy va klassik davr elitologiyasiga bo'lish zaruriyati va ularning muayyan jabhalarda bo'linmas yaxlit bir butun fan sohasi ekanligi ko'rsatilib o'tiladi. Maqola nazariy va amaliy tadqiqotlarnilarni birlashtirgan holda, umumiy fan sohasi doirasining chegaralarini ham ko'rsatib o'tadi. Maqolada asosiy masala elitologiyani klassik va zamonaviy xususiyati jihatidan balki boshqa fan tarmoqlari bilan mustaqil yoki gibrid faoliyatiga ham to'xtalib o'tish muhim hisoblanadi. Maqolada bir qator yondashuvlar, konsepsiyalar, nazariyalar va tadqiqotlar ham keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** Elitologiya, elita, elitizm, siyosatshunoslik, klassik va zamonaviy davr elitologiyasi, davlat, jamiyat, hokimiyat, siyosiy jarayon.

LIMITS AND INTERSECTIONS OF CLASSICAL  
AND MODERN ELITOLOGY

**Abstract:** This article shows the need to divide political elitology into modern and classical era elitology and that they are a whole field of science that is indivisible in certain aspects. Combining theoretical and practical research, the article shows the boundaries of the scope of general science. In the article, it is important to touch on the main issue of elitology in the terms of its classical and modern characteristics, as well as its independent or hybrid activity with other branches of science. The article presents a number of approaches, concepts, theories and studies.

**Key words:** Elitology, elite, elitism, political science, classical and modern elitology, state, society, power, political process.

ПРЕДЕЛЫ И ПЕРЕСЕЧЕНИЯ КЛАССИЧЕСКОЙ  
И СОВРЕМЕННОЙ ЭЛИТОЛОГИИ

**Аннотация:** В данной статье показана необходимость разделения политической элитологии на элитологию современной и классической эпохи и

то, что они представляют собой целую область науки, неделимую в определенных аспектах. Объединив теоретические и практические исследования, в статье показаны границы сферы общей науки. В статье важно затронуть основной вопрос элитологии с точки зрения ее классической и современной характеристики, а также ее самостоятельной или гибридной деятельности с другими отраслями науки. В статье представлен ряд подходов, концепций, теорий и исследований.

**Ключевые слова:** Элитология, элита, элитизм, политология, классическая и современная элитология, государство, общество, власть, политический процесс.

### **KIRISH.**

Siyosatshunoslik sohasidagi dolzarb muammo bu fan sohasidagi chegaralar masalasi va ushbu yo‘nalishning mustaqil kasb sifatidagi amaliyoti va yashovchanlik xususiyatidagi belgilarni yuqori darajaga ko‘tarish hisoblanadi. Buning uchun esa bu soha fanlaridagi chegaralar qanday ekanligi bilib olish zarur hisoblanadi. Mazkur ilmiy ishda siyosatshunoslik sohasiga daxldor fan sifatida elitologiya fan sohasi tanlab olindi. Siyosatshunoslik fanlari tizimida elitologiyaning zamon va makon kategoriyasi nuqtai nazaridan klassik davrga xos elitizm va siyosiy elita haqidagi konsepsiyalar va g‘oyalar bilim tarmog‘i bilan zamonaviy davr elitologiya fani sohasining chegaralari bir-biriga nisbatan proparsional nisbatga va farqga ega hamda ularning tadqiqot usullari va metodlari ham bir-biridan farq qiladi. Bu kategorial farq elitologiyaning chegaralar kesishmasidagi o‘ziga xos bo‘lgan paradigmalarni va fan imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi. Biroq, ayrim ilmiy adabiyotlarda elitologiyani klassik davr va zamonaviy davr nuqtai nazaridan tahlil qilinayotganda, ularning dominant va determinantlik xususiyatlari va amaliy hamda nazariy tadqiqotlardagi adaptatsiyasi, ularni yaxlitlashtiradi va bir butun fan sohasini bunday davrga bo‘lib usul va texnologiyalarni davriy nisbatda qo‘llash o‘zini oqlamasligini ko‘rsatib o‘tadi. Shuningdek, ba‘zi olib borilgan tadqiqotlar dinamikasi progressiyasi elitologiyaning kesishma nuqtalari ya‘ni boshqa fan tarmoqlari bilan sotsiologiya, huquqshunoslik, iqtisodiyot, tarix kabi fanlardagi integratsiyasi va bu unifikatsion jarayonlarning mustaqil sohaga ya‘ni siyosatshunoslik fanlarining yaxlit tarmoqlari tartibining ishlab chiqilishi oqibatida elitologiya sohasi uchun tub burilishlarni yasadi hamda buning oqibati esa, zamonaviy davr elitologiyasi konsepsiyasi va tadqiqotlarida yaqqol ko‘rina boshladi. Klassik davr elitologiyasi chegaralarida doim sotsiologiya, huquqshunoslik, tarix, iqtisodiyot fan tarmoqlari bilan aloqlarining va tadqiqot usullarining yaqinligi bois ham, bu jarayonlar zamonaviy davr elitologiyasidan tubdan farq qiladi. Demak, makon va zamon kategoriyasidan tashqari, elitologiya fani fan tarmoqlaridagi integratsiyasi nuqtai nazaridan ham va bu fanlardagi tadqiqot usullari va texnologiyalari jihatidagi farq bilan ham chegaralarni ko‘rsatish mumkin. Biroq elitologiyani klassik va zamonaviy davrga

bo‘lish zaruriyati ham mavjud. Ushbu zarurat siyosatshunoslik sohasining zamonaviylashuvi yoki modernizatsiyasi bilan bog‘liq hisoblanadi. Yangi-yangi tendensiya darajasiga chiqayotgan tadqiqotlar endi zamonaviy tus olib borishi klassik davrdagi ba‘zi bir fan tadqiqotlarini jiddiy tanqidiy ko‘rib chiqa boshlaydi. Bu tanqidiy baholash 1950-1960-yillardagi jahon ilm-fanidagi yangi texnologiyalar va zamonaviy yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Shunisi qiziqki, bu tanqidlar va baholashlar jarayoni siyosatshunoslik fanlari tizimi uchun ijobiy natijalarga olib keladi hamda zamonaviy elitologiyadagi bir qator fan konsepsiyalarining qayta ko‘rib chiqilishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

### **METODOLOGIYA VA NAZARIY ASOSLAR.**

“Elita” tushunchasi fransuz tilidan tarjima qilinganida “sara”, “saralangan” va “tanlangan” ma’nolarini anglatadi. Bu defenitsiya ikki xil ma’noni anglatadi. Birinchidan u yoki bu o‘lchovlar sirasida eng yuqori, toza va aniq belgilari ifodalanib, barq urib turgan biron-bir narsani anglatadi. Bu ma’nodagi “elita” “elita ot”, “elita don”, “elita qo‘shin” kabi so‘z birikmalari shaklida ishlatiladi. Ikkinchidan, jamiyat uchun ahamiyat kasb etadigan, alohida sifatlarga ega bo‘lganligi uchun u boshqarish vazifasini bajaradigan jamiyat va davlat yuqori pog‘onalarida turadigan guruhni anglatadi. Siyosiy fanlarda esa “elita” axloqiy xolis mazmunda ishlatiladi. Eng umumiy shakllarda tavsiflanadiganda, bu tushuncha siyosiy boshqaruv sifatlari va funksiyalari yorqin va ravshan ifodalangan guruh yoki qatlamni anglatadi. “Siyosiy elita” tushunchasini ilmiy talqin etish siyosatning o‘rni va rolini, uning jamiyatda bevosita ifodalovchi belgilariga doir muayyan umumiy tasavvurlarga asoslanadi.<sup>1</sup> Elitologiya – elita haqidagi barcha amaliy va nazariy konsepsiyalar, tadqiqotlar, yondashuvlar, paradigmalar, ta’limotlar haqidagi fan hisoblanadi. Elitologiya fani siyosatshunoslik fanlari sohasidagi alohida majmuaga ega fan tarmog‘idir. Biroq shu o‘rinda elitizm, elitarizm elitologiya tushunchalarining farqini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Elitizm- elita haqidagi nazariyalar majmuidir. (Misol uchun siyosiy elita, iqtisodiy elita haqidagi V.Pareto, G.Moska va R.Mixelslarning qarashlari yoki konsepsiyalari.) Elitarizm esa, har qanday sohaning ko‘rinishi, tuzulishi, sifati va miqdoriga qarab har biri ichidan eng sarasini aniqlashdir. Boshqacha aytganda, har bir sohaga elitar tabiat nuqtai nazaridan yondashish hisoblanadi. (Misol: Turli siyosiy institutlar ichida eng yuqori mavqe, resurs va imkoniyatga ega bo‘lgan tuzilmalarga shu institutlar ichidan achratib, ular orasidagi eng sara tuzilma sifatida qarash hisoblanadi. Soddaroq aytganda, otlar ichidagi eng sara otni achratib ko‘rsatish bunga misoldir.) Elitologiya – shu elitizm va elitarizm tushunchalarini fan ichida mujassamlashtirgan siyosatshunoslik fanidir.<sup>2</sup> Hokimiyatga intilish, unga erishish,

<sup>1</sup> Qirg‘izboyev. M. Siyosatshunoslik: oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik/ O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti. – Toshkent: “Sharq”, 2024. -235 b.

<sup>2</sup> Ашин.Г.К. Элитология: история, теория, современность: монография / Г.К.Ашин. Моск.гос.ин-т междунар. Отношений (ун-т) МИД России, каф. Философии. – М.: МГИМО – Университет, 2010. – 24-25 с.

siyosiy qarorlar qabul qilinishida ishtirok etishda tarixan muayyan insonlar guruhi shakllangan. Garchi bugungi kunda siyosiy boshqaruvda barcha fuqarolar teng huquqli deb e'tirof etilsada, eng rivojlangan mamlakatlarning siyosiy amaliyoti shuni ko'rsatdiki, hokimiyatni taqsimlash va amalga oshirish jarayoni fuqarolarning teng qatnashishini nazarda tutmaydi.<sup>3</sup> Emperik tadqiqotlarda o'tkazilgan so'rovnoma, kuzatuv, intervyu usullaridan olingan natijalarga ko'ra, bir qator siyosiy va ijtimoiy soha mutaxassisleri, olimlari va vakillarining tahliliy xulosa va ilmiy izlanishlari shuni ko'rsatadiki, klassik davr elitologiyasi asosan, qadimgi Yunoniston va qadimgi Rim olimlarining davlat boshqaruvi va siyosiy hokimiyat tizimidagi munosiblik mezonlari, psixologik va funksional imkoniyatlar hamda elita qatlamidagi siyosiy tartibotlarning ta'siri va bu ta'sirlarning keying voqealar ssenariysidagi ko'rinishlari aks etadi. Zamonaviy elitologiyada esa, rus olimlari Serger Guriyev va Daniel Treysmanning "Manipulyativ diktatorlar: XXI asrda Tiraniyaning o'zgaruvchan tabiati" asariga ko'ra, elitalardagi tashqi ta'sirlarga nisbatan, moslashuvchanlik va o'zgaruvchanlik tabiati, elitaning o'ziga tushishi mumkin bo'lgan nurlarga qarshi zamonaviy usullar va texnologiyalar bilan javob bera olishi va elitalar o'rtasidagi kelishuv va hamkorlik sterotiplarining yuqori darajada rivojlanganligi hamda siyosiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy elitalardagi rekrutsion, sirkulyatsion, transformatsion jarayonlarning tezkorligi va buning ta'sirchanlik kuchining kamligini ko'rsatib o'tishadi. Har qanday elitadagi siyosiy jarayonlar dinamikasi o'zining yuqori va pastki nuqtalariga ega hisoblanib, bu klassik va zamonaviy elitologiyadagi matematik usuldagi koordinatalarga moslashtirib, gipotezik farazni ilgari suradigan bo'lsak, bu koordinatalar muayyan sonlar o'qida kesishadi, ya'ni bundan shunday xulosani chiqaradigan bo'lsak, klassik va zamonaviy davr elitologiyasi fani muayyan fan texnologiyasi va ilmiy usullarida bir-biriga muayyan murojaatlarni amalga oshiradi va yagona unifikatsiyaga birlashib, integratsion kvalifikatsiyani yaratadi. Biroq, bu tanqidiy masalada savol tug'iladi: zamonaviy, takomillashgan fan sohasi nima uchun klassik davrga murojaat qilib fanlar birlashuvini amalga oshiradi yoki bu nima uchun kerak. Buning asosi shundaki, klassik davrdagi ba'zi tadqiqot usullari zamon va makonda muayyan konsentrik doirani yaratib beradi. Bu doira imkoniyatlar savatini shakllantirib, siyosiy elitologiya sohasining yutuqlarini va amaliy xususiyatlarini ko'rsatib beradi. Muayyan muammoga uning ssenariy tuzilishi va ko'lami, qiyinligiga ko'ra turli siyosiy usullar va texnologiyalar tanlab olinadi yoki unga yo'naltiradi. Shu o'rinda, elitologiya fanining o'rganilishidagi tadqiqotlar ssenariysini ham tahlil qilish bu fan sohasida aniqlikni yaratadi. Dastlabki davrlarda ya'ni klassik davr deb ko'rilgan vaqtlarda barcha fanlar "Filosofiya fanlari" falsafa fanlari sohasida ko'rilgan hamda bu davrlarda elita, davlat, jamiyat kabi fenomenlar bo'yicha alohida fanni uchratish hali bo'lmagan. Biroq "Ilm-fan inqilobi" natijasida esa, fanlar achralishi va yaxlit fan

<sup>3</sup> Biturayev O'. B. Siyosatshunoslikka kirish (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Barkamol fayz media", 2017, 161 b.

sohalarining yaratilishi oqibatida, bu davlat, jamiyat, boshqaruv kabi sohalarga tegishli fanlar vujudga kelishi fanlardagi paradigmik fundament andozalarini ishlab chiqishiga xizmat qildi. Yuqoridagi sohalarga tegishli fanlar mavjud bo'lgani bilan lekin elitalar haqidagi fanlar hali mavjud bo'lmagan. Sabab sifatida "feodalizm" "burjuaziya qatlami" kristall holatda o'zi haqidagi ma'lumotlarni oshkor bo'lishini va ulardagi harakat dinamizmini ko'rsatishni xohlamagan va bu bo'yicha shug'illanuvchilar esa "ko'rinmas kuchlar" taqibiga uchrashdan saqlanganlar. Biroq bu urinishlar samarasi elitalarining imiji va nufuzini tushurib yuborganligi hamda davlat va jamiyat muvozanatidagi legallik va legitimlik xususiyatlarining kamayishi ular haqidagi bir qator tadqiqotlar eshigini ochib beradi. Ya'ni elitalar o'zlarida uchraydigan muammolarga muayyan yechimlarni olib kirish maqsadida "siyosiy menejment" sohasiga, "siyosiy texnologiyalar va usullarga", "zamonaviy boshqaruv konsepsiyalariga" murojaat qilishiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari elita hisoblangan barcha tuzilmalar ichidagi shaxslar ham elitalar haqidagi ma'lumotlarni ilmiy jamoatchilikka taqdim etishi natijasida "Elitologiya" fani rivojining taraqqiy etishi tezlashib ketadi. Bundan shunday xulosaviy natijani keltirib chiqarish mumkinki, zamonaviy va klassik davr elitologiyasini tadqiq etish ham bu fan sohasidagi farqlarni va yo'llarni isbotlaydi.

### NATIJALAR.

"Elitologiya" sohasida "elita" tushunchasining shakllanishi va siyosatshunoslik fanida qo'llana boshlashi uchun bevosita rus olimi Sorel va italiyan olimi V.Paretolarning asarlari xizmat qilgan.<sup>4</sup> XX asrning boshlarida Sorel va Paretolarning asarlari "Elita" atamasining kurtaklarini ilmiy hamjamiyatga e'tirof etishadi.<sup>5</sup> Zamonaviy, mumtoz nazriyalar XIX asr oxiri -XX asr boshlarida paydo bo'ldi. Ularning vujudga kelishi Gaetano Moska, Vilfredo Pareto va Robert Mixels nomlari bilan bog'liq. Ularning tadqiqotlarida siyosiy elita tushunchasiga mufassil, har tomonlama ta'rif berilgan va uning asosiy xususiyatlari ko'rsatilgan. Shu boisdan olimlar – elitologiya, siyosiy boshqaruvni amalga oshiruvchi, ijtimoiy qatlamni o'rganadigan, maxsus ilmiy yo'nalishning asoschilari, deb tan olinadi. Ularni tadqiqotlarida zamonaviy elita nazariyalarini ajratish va baholash imkonini beruvchi meonlar belgilangan bo'lib, umumlashtirilgan holda N.Makiavelli maktabiga tegishli deb, tan olingan.<sup>6</sup> Makon va zamon nuqtai nazaridan elitologiya o'zining klassik davrdagi komponent va elementlariga, zamonaviy davr nuqtasida esa, texno-deterministik asoslariga ega hisoblanadi. Klassik davrda davlat boshqaruv va hokimiyat tizimida elitizm borasida qadimgi yunon olimlari Aflotun, Arastu o'rta

<sup>4</sup> To'xtayev, X. Siyosiy elita nazariyasining rivojlanishida turli yondashuvlar va uning evolyutsiyasi. //Oriental Journal of Social Sciences. 2024. 4 b. <http://www.supportscience.uz/index.php/ojss>

<sup>5</sup> Ашин Г.К., Пониделков.А.В., Старостин А.М., Кислицын С.А. Основы политической элитологии Изд. 4. – Москва.: 2018, 520 с.

<sup>6</sup> Bo'tayev.U.X. Siyosatshunoslik [Matn] : darslik/U.X.Bo'tayev – Toshkent: Info capital books, 2024. – 156 b.

asrlarda esa, Abu Nasr Farobiy kabi olimlarning elitologiya borasidagi ta'limotlarni ilgari surishsa, zamonaviy davrga kelib esa, T.Kampanella, F.Bekon, A.Sen-Simon, T.Veblen, J.Gelbrejt, D.Bell kabi olimlarning zamonaviy jamiyatga o'tish borasidagi yondashuvlari bevosita elitologiyadagi zamonaviy elita nisbatlarini ifodalaydi.<sup>7</sup> Bu borada klassik va zamonaviy elitologiyani amerikalik olim Jin Sharp o'zining "Diktaturadan demokratiyaga" asarida siyosiy tartibotlar ya'ni demokratik va nodemokratik jihatdan ko'rsatib bergan bo'lib, bunda asosiy farq va umumiy jihatlarga: demokratik, avtaritar, totalitar rejimlar nuqtai nazaridan, undagi resurslar va kuchlar (soft(yumshoq), hard(qattiq)) xususiyatlariga to'xtalib o'tgan. Vatslav Gavel esa bu borada, "Kuchsizlar kuchi" asarida elitalardagi klassik yoki zamonaviy tomonlarga, bu elitarning yashovchanligi va kurashuvchanligi va unga qarshi kuchlarga nisbatan pozitsiyasiga to'xtalib o'tgan. Turkiyalik davlat arbobi, taniqli siyosatchi Najmiddin Erbag'on o'zining "G'oyam" asarida elitalar raqobati va bu raqobatdagi usullari bilan elitologiya fanidagi zamonaviy chegaralarni ko'rsatib o'tadi. Biroq bu boradagi yondashuvlar tashqi siyosat masalasida bo'lganligi bois, xalqaro maydondagi elitalariga ko'proq to'xtaladi. Elitalar masalasi ichki yoki tashqi siyosat darajasida ham mavjud bo'ladi. Zero, har qanday daraja, hajm va imkoniyat pog'onalari va iyerarxiyalari o'zining elitarlik xususiyatiga ega hisoblanadi. Bu "mavqe" va "status-kvo" uchun "munosiblik" mezonlari asosida yuqori pog'onalarga chiqish va shu imkoniyatda qolish elitalardagi tashqi va ichki imkoniyatlarni ko'rsatadi. Shuning bilan birga, hozirgi paytda elitarni mintaqaviy va hududiy miqyosda tahlil qilish tendensiyasi ham shakllangan. Bu borada klassik va zamonaviy elitologiya davriy nuqtai nazarda o'zini oqlaydi. Biroq davlat boshqaruvi va siyosiy hokimiyat munosabatlarida va siyosiy tizim masalasida esa shu nisbatlarga bo'lish mumkin emas. Aniqroq aytganda, bir davlat ichidagi elitalar hamda mintaqalar darajasidagi elitalar mavjud. Bu elitalar harakati va dinamik progressiyasi fan qonuniyatlariga amaliy jihatdan to'g'ri kelmaydi. Lekin zamonaviy tendensiya komponenti sifatida esa bu jihatlarga egalik, elitologiyadagi zamonaviylik an'anasini shakllantiradi. Ya'ni siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari, tashkiliy tuzilmalar va muassasalar hamda parlament, hukumat va boshqa siyosiy institutlarning hudud asosidagi siyosiy ta'sir ko'lami ham zamonaviy trend darajasidagi qonuniyatni yaratadi.<sup>8</sup>

### **MUHOKAMALAR.**

Mazkur siyosiy elitologiya masalasida ilmiy jamoatchilik o'rtasida bir qator tortishuvlarga sabab bo'layotgan nuqta klassik elitologiya zamonaviy elitologiya uchun muayyan usullarni, texnologiyalarni yaratishida asosiy fundamentni yaratadi degan qarash stereotipining shakllanganligi hisoblanadi. Bu esa elitologiyaning

<sup>7</sup> Mirzaaxmedov.K.M. Siyosaiy elita va yetakchilik. Ma'ruza. 2023. 2-3 b.

<sup>8</sup> Isanova.G. Siyosiy elita va yetakchilik. Ma'ruza. 2024. 5-6 b.

bo‘linmas yaxlit bir tuzilma va tizimdan iborat fan ekanligini ko‘rsatadi. Klassik davr va zamonaviy davr chegaralari bu makon va zamonda farqlanishi mumkin. Qadimgi Yunoniston olimlari Platon, Aristotel, qadimgi Rimda Siseron, Lukretsiy Kar, qadimgi Xitoyda Konfutsiy, qadimgi Hindistonda Kautiliya, o‘rta asrlarda italiyalik davlat arbobi Nikollo Makiavelli hamda “Makiavellizm” maktabi tarafdorlari Vilfredo Pareto, Gaetana Moska, germaniyalik olim Robert Mixelslar qarashlaridai elitologiya va uning fan nazariy ta‘limotlari jahon ilmiyhamjamiyati tomonidan “Siyosatshunoslik fani elitologiya” uchun dastlabki qadamlar va fan rivojidadagi nuqtalar pozitsiyasi sifatida e‘tirof etiladi. Shuning bilan birga, qadimgi Sharq davlatlari: Misr, Bobil, Hindiston, Xitoy, Turon hududlaridagi teologik va an‘anaviy siyosiy-huquqiy ta‘limotlar yaqqol elitalar tabiatiga sodda, biroq mustahkam “gildiya tizim” ga egaligini hamda shu nisbatdagi ta‘limotlarni turli manbalarida ifodalab, klassik elitologiyaning “Sharq modeli”ni yaratadi. Bundan tashqari ikkinchi tomon “G‘arb modeli” ham mavjud bo‘lib, bunda qadimgi Rim, Yunoniston siyosiy va huquqiy ta‘limotlari bir qator manbalarda elitaga xos tushunchalar, yondashuuvlar va qarashlarni ilgari suradi. Biroq bu bilan klassik elitologiya tugallanmaydi. Keying o‘rta asrlar hamda yangi davr, ya‘ni XVIII-XIX asrlarga kelib, bu jarayon dinamikasidagi klassik daraja saqlanib qoladi.<sup>9</sup> Zamonaviy elitologiya bu klassik davr doirasidagi bilimlarning mustaqil tarzdagi boshqa fan sohalaridan achralib, aniq chegaralariga ega bo‘ldi. Elitologiya chegaralari va kesishish nuqtalari masalasida ham aniqlik kiritib olish zarur, ya‘ni elitologiya faqat makon va zamon dinamikasida klassik va zamonaviy jihatdan farqli tomonlarga bo‘linib qolmay, balki, boshqa fan sohalari bilan ham paradigmik asoslarga ko‘ra aniq chegara va nuqalarga ega hisoblanadi. Elitologiya ba‘zi ilmiy tadqiqot nuqtalarida bir qator fanlar bilan matematika, sotsiologiya, tarix, huquq, falsafa kabi fanlar bilan muayyan integratsion diapazonni hosil qiladi. Sabab esa, tadqiqotlardagi izchillik va ma‘lumotlar omboridagi axborotlar oqimining tizimlilik, metodologik, ilmiylik jihatlarini taqazo etishi hisoblanadi. Buni “Siyosat nazariyasi va metodologiyasi”dagi paradigmalar va shu paradigmalardagi imkoniyatlar pozitsiyalaridan ham keltirib chiqarish mumkin. Bir qator siyosatshunos olimlar ushbu paradigmalar tufayli siyosatshunoslik aniq chegara va nuqtalarga ega deb bilishadi. Ya‘ni “Normativ-me‘yoriy paradigma, institutsional va neoinstitutsional paradigma, strukturalizm va neyro-siyosat paradigmasi, funksionalizm paradigmasi, global paradigmalar” kabi paradigmalar tadqiqotlar nafaqat elitologiya chegaralaridagi aniq nuqtlarni balki butun siyosatshunoslik fanlarining boshqa fan tarmoqlari bila chegaralarini ifodalaydi.<sup>10</sup> Yana bir masalani ham aytib o‘tish joizki, elitologiyaning bu fan chegaralaridan tashqari davriy adaptatsiyasi ya‘ni fan ichidagi va tashqarisidagi. Tashqarisidagi tushunarli, bu uning boshqa fanlar bilan moslashuvchanligidir.

<sup>9</sup> Muhitdinova.F.A. Siyosiy va huquqiy ta‘limotlar tarixi. Darslik. – T: TDSHI nashryoti, 2011. -16-17 b.

<sup>10</sup> Mirzaaxmedov.K.M. Siyosat nazariyasi va metodologiyasi. Ma‘ruza. 2024. 4-5 b.

Elitologiyaning o'zini ichidagisi esa bu uning klassik davrdai komponent va elementlarni zamonaviy davrga transformatsiyasini moslashtirishi hisoblanadi.

### **XULOSA.**

Elitologiya borasidagi tadqiqotlar, tahlillar, natijalar, muhokamalar soha chegaralari kengligi va bu ijtimoiy va siyosiy sohalarni qamrab oluvchi siyosatshunoslik fanlari doirasida boshqa yo'nalishdagi fanlardan tadqiqot usuli va texnologiyasi bilan farq qilishini ko'rsatdi shuningdek, fanning imkoniyatlarini va funksiyalarini klassik va zamonaviy elitologiyaga zamon va makon nuqtai nazaridan achratish mumkin lekin uni tadqiqot jarayonida va muayyan muammoga yondashilayotganda achratib ko'rsatish o'zini oqlamasligini ko'rsatadi. Biroq bunday xulosaning ham tanqidiy tomoni mavjud bo'lib, unda "ilm-fan modernizatsiyasi" hamda fan tarmoqlaridagi mustaqil bo'linish va aniq chegaralarga ega bo'lish, bu jarayondagi o'ziga xos nuqtai nazarni yaratadi. Elitologiya sohasi chegaralari va ushbu fan sohasi integratsiya qilishi mumkin bo'lgan fanlar diapazoni ko'lami ilmiy tadqiqotlar va amaliy hamda nazariy jarayonlardagi progressiya darajalari va impulsariga bog'liqligini ham xulosa o'rnida aytib o'tish joiz bo'ladi. Elita masalasida elitologiyaning ahamiyati undagi nisbatlarni proporsional tartibda siyosatshunoslik sohasida amaliy va nazariy jabhalaradgi mobilizatsionlik xususiyatining shakllanganligi va buning uzliksiz fan m'lumotlarini axborotlar tartibida saqlashi va jamlashi hisoblanadi. Garchi elitologiya nazariy jihatdan ko'proq muammolarni qamrab olsada, biroq nazariyadagi bunday amaliyot siyosiy jarayonlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Siyosiy jarayon hisoblangan qaror qabul qilish jarayonida amaliyot masalasi yuqori hisoblansa ham nazariy fundamentlar ham bu jarayon uchun muayyan usul va texnologiya bo'lib xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1)Qirg'izboyev. M. Siyosatshunoslik: oliy o'quv yurtlari talabalri uchun darslik/ O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti. – Toshkent: "Sharq", 2024. -235 b.
- 2)Ашин.Г.К. Элитология: история, теория, современность: монография / Г.К.Ашин. Моск.гос.ин-т междунар. Отношений (ун-т) МИД России, каф. Философии. – М.: МГИМО – Университет, 2010. – 24-25 с.
- 3)Biturayev O'V. Siyosatshunoslikka kirish (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Barkamol fayz media", 2017, 161 b.
- 4)To'xtayev. X. Siyosiy elita nazariyasining rivojlanishida turli yondashuvlar va uning evolyutsiyasi. //Oriental Journal of Social Sciences. 2024. 4 b. <http://www.supportscience.uz/index.php/ojss>
- 5)Ашин Г.К., Пониделков.А.В., Старостин А.М., Кислицын С.А. Основы политической элитологии Изд. 4. – Москва.: 2018, 520 с.
- 6)Bo'tayev.U.X. Siyosatshunoslik [Matn] : darslik/U.X.Bo'tayev – Toshkent: Info capital books, 2024. – 156 b.



- 7)Mirzaaxmedov.K.M. Siyosiy elita va yetakchilik. Ma'ruza. 2023. 2-3 b.
- 8)Isanova.G. Siyosiy elita va yetakchilik. Ma'ruza. 2024. 5-6 b.
- 9)Muhitdinova.F.A. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi. Darslik. – T: TDSHI nashryoti, 2011. -16-17 b.
- 10)Mirzaaxmedov.K.M. Siyosat nazariyasi va metodologiyasi. Ma'ruza. 2024. 4-5 b.